**Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali xarid komissiyasining yig'ilishi**

**BAYONI № 3**

Shahrisabz shahri "5"oktyabr 2021yil

**Komissiya raisi:**
Direktor Mutalov Sh.A.
**Komissiya a'zolari:**
Bosh muhandis A.Malikov
Bosh hisobchi D.X.Amanova
Reja-moliya bo'limi boshlig'i L.M.Nurmatov
Texnik foydalanish va
xo'jalik bo'limi boshlig'i A.C.Juraqulov

**Kvorum 100%**

**Kun tartibi:**

**Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filialida 8 ochkolik hojatxona qurish ishlari yuzasidan pudratchi tashkilotlardan kelgan takliflarni o'rganish va g'olib pudratchini tanlash to'grisida.**

Kun tartibidagi masala yuzasidan komissiya raisi Sh.A.Mutalov so'zga chiqib TKTI Shahrisabz filialida **8** ochkolik hojatxona qurish yuzasidan birja portaliga 2021 yil 4 oktyabrda e'lon qilingan **№:7154007** lot muddati tugaganligini va ushbu lotga muvofiq kelib tushgan takliflarni ko'rib chiqish kerakligini ma'lum qildi.
E'lon qilingan muddat davomida **TKTI Shahrisabz filialida 8 ochkolik hojatxona qurish yuzasidan 123 399 679 so'm** qiymatida berilgan loyihani bajarish uchun 3 ta taklif kelib tushgan va ro'yxatga olingan. **Xizmat takliflari paketi ochilishida shaffoflikni ta'minlash maqsadida barcha ishtirokchilarning vakolatli vakillari taklif etildi** va paketlar ochilish jarayonida **3 ishtirokchining vakolatli vakillari ishtirok etdi**. Paketlar vakolatli vakillar guvohligida ochildi hamda keltirilgan narxlar o'qib eshittirildi.
Tanlov bo'yicha ishtirokchilar tomonidan taklif qilingan narxlar quyidagicha:

| № | **Ishtirokchilar nomi** | **Taklifnarxi** (so'mda) |
|---|---|---|
| 1 | «KESH-QURILISH CITY» МЧЖ | 123 288 394 |
| 2 | «KESH KARAT STROY» МЧЖ | 123 260 515 |
| 3 | «INMOTION BUILDING PROJECT» МЧЖ | 122 980 547 |

Komissiya a'zosi D.X.Amanova so'zga chiqib yuqorida keltirilgan takliflar xarid komissiyasi tomonidan har tomonlama-chuqur o'rganib chiqilishi kerakligini hamda ishtirokchilarning taklif bergan narxlaridan tashqari **O'zbekiston Respublikasining Davlat xaridlari to'g'risidagi 2021 yil 22-aprelda qabul qilingan O'RQ-684 son qonuniga qat'iy amal qilib hamda ushbu qonunning 5-36—moddalariga** asosan tejamkorlik, malakaga oid ma'lumotlar, ishtirokchilarga quyilgan talab mezonlari, ya'ni zarur texnikaviy, moliyaviy, moddiy, kadrlar resurslarining hamda boshqa resurslarning mavjudligi, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha qarzdorlikning mavjud emasligi to'grisida taqdim etilgan ma'lumotlar hisobga olinishini ta'kidladi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra va xarid komissiyasi tomonidan o'rganilgan natijalarni hisobga olib **TKTI Shahrisabz filialida 8 ochkolik hojatxona qurish** ishlarini bajarish uchun "INMOTION BUILDING PROJECT" MCHJning nomzodi ko'rib chiqildi. Taklif komissiya a'zolari tomonidan _100_% ovoz bilan ma'qullandi.

Barcha o'rganilgan ma'lumotlar va takliflarni hisobga olib xarid komissiyasi

**QAROR QILADI :**

1. "INMOTION BUILDING PROJECT" MCHJtanlov g'olibi deb topilsin.
2. Tanlov g'olibi bilan belgilangan tartibda shartnoma imzolansin.
3. Ushbu kapital ta'mirlash ishlari uchun to'lovlarni belgilangan tartibda o'z muddatida to'lab borish bosh hisobchi v.b D.Amanova zimmasiga yuklatilsin.
4. Ushbu kapital ta'mirlash ishlarini bajarilishini sifat va miqdor jihatdan nazorat qilish, bajarilgan ishlarni qabul qilish bosh muhandis A.Malikov zimmasiga yuklansin.
5. Ushbu bayonnoma qarori ijrosini nazorat qilish xarid komissiyasi raisi Sh.A.Mutalovga yuklatilsin.

**Komissiya raisi:**

DirektorSh.A.Mutalov

**Komissiya a'zolari:**

Bosh muhandis A.Malikov

Bosh hisobchi D.X.Amanova

Reja-moliya bo'limi boshlig'i L.M.Nurmatov

Texnik foydalanish va
xo'jalik bo'limi boshlig'i A.C.Juraqulov